

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA TUTGAN O`RNI

Farg'ona ICHSHUI kasb-hunar maktabi

Tarix fani o'qituvchisi

Davidova Gulnoza Mirzakarimovna

Anotatsiya: *Birlashgan millatlar tashkilotining xalqaro munosabatlar tizimida tutgan o`rni haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *BMT, Xalqaro tinchlik va xavfsizlik, Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi, Xalqaro Sud.*

Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, insonparvarlik yordami kabi sohalardagi erishgan muvaffaqiyatlari yaxshi ma'lum. Tashkilotning faoliyati ko'p qirralari bo'lib, insoniyat, olamning muhim masalalarni qamrab oladi: barqaror rivojlanish va terrorizmga qarshi kurash, demokratiya va boshqaruvni rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va global sog'liqni saqlash muommolarini hal qilishdan oziq-ovqat ishlab chiqarishni rivojlantirishgacha. Shu maqsadlarga erishish va global xavfsizlik va kelajak avlodlar taqdiri bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirish yo'lida juda ham ko'p ishlar qilmoqda. Biroq, Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'zining a'zo davlatlari va hozirgi dunyo xalqlari uchun foydali vosita bo'lib xizmat qilishi uchun, yigirma birinchi asr talablariga mos bo'lishi kerak. Shu munosabat bilan uzoq vaqtdan beri BMTda keng qamrovli islohotlar o'tkazish zarurligi haqida keng muhokamalar yuzaga kelmoqda. Tashkilotni isloh qilish uning jahon siyosatidagi markaziy muvofiqlashtiruvchi rolini kuchaytirish, zamonaviy dunyo sharoitlariga moslashish va barcha sohalardagi faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Islohot keng ko'lamli masalalarni o'z ichiga oladi, ular ichida eng dolzarbi Xavfsizlik Kengashini isloh qilishdir.

U xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, xalqlarning teng huquqli bo'lishi va o'z taqdirini o'zi belgilashi qoidasiga amal qilib, millatlar o'rtasida do'stlik munosabatlarini rivojlantirishni, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy muammolarni hal etishda xalqlar o'rtasida hamkorlik bo'lishini ta'minlashni ko'zda tutib, shu umumiy maqsadlarga erishishda millatlar harakatini uyg'unlashtirib turadigan markaz hisoblanadi. Ikkinchi jahon urushidan keyin AQSh, Buyuk Britaniya, Rossiya va Xitoy tomonidan tuzilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti dunyodagi eng yirik va eng qudratli hukumatlararo tashkilotdir. BMT Nizomi birinchi marta 1945-yil 26-iyunda imzolangan va 1945-yil 24-oktyabrda kuchga kirgan. 1946-yil 10-yanvarda Angliyaning London shahrida bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining birinchi yig'ilishida jami 51 ta a'zo davlat ishtirok etdi. 2023 yilga kelib, BMT 193 a'zo davlat va ikkita a'zo bo'lmagan kuzatuvchi davlatni o'z ichiga oladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lmagan oz sonli suveren hududlar mavjud. BMTning doimiy ish o'rni (shtab kvartirasi)-NEV YORK. Bundan tashqari, tashkilotning rasmiy tillar ingliz, fransuz, rus, ispan,

xitoy tillari bo'lib, ingliz, fransuz, ispan tillarida ish yuritiladi. A'zo davlatlar tomonidan Bosh Assambleyada a'zolik badallarini hisoblashda foydalaniladigan asosiy mezon mamlakatning to'lov qobiliyatidir. To'lov qobiliyati yalpi milliy mahsulot (YaIM) va bir qator tuzatishlar, jumladan, tashqi qarz va aholi jon boshiga daromadlar bo'yicha tuzatishlar asosida aniqlanadi.

Quyidagi a'zo davlatlar 2019- va 2020-yillarda BMTning muntazam byudjetiga badallar bo'yicha yetakchilik qildi:

Birlashgan Millatlar Tashkilotining nizomi tashkilotning to'rtta asosiy maqsadini belgilaydi:

Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash (birinchi navbatda tinch diplomatik vositalar orqali). Xalqlar o'rtasida do'stona munosabatlarni rivojlantirish, hammaga teng huquqlar berish va global tinchlikni mustahkamlashga harakat qilish.

Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va gumanitar muammolarni hal qilish va barcha uchun inson huquqlari va asosiy erkinliklarini ilgari surish uchun xalqaro hamkorlikdan foydalanadigan forum yaratish.

Tashkilotning tinchlik va xavfsizlik bo'yicha belgilangan maqsadlariga erishish uchun a'zo davlatlarning harakatlarini uyg'unlashtiradigan markaz va katalizator bo'lish.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti oltita asosiy organdan iborat bo'lib, ulardan beshtasi faol:

Bosh Assambleya - Rollarga byudjetni boshqarish va yangi a'zolarini qabul qilish kiradi.

Kotibiyat — boshqa organlarga ma'muriy yordam ko'rsatadi.

Xavfsizlik Kengashi - xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun mas'uldir.

Xalqaro sud - huquqiy xulosalar beradi va nizolarni hal qiladi.

Iqtisodiy va Xavfsizlik Kengashi - iqtisodiy va ijtimoiy masalalarda davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni boshqaradi.

Qolgan organ, Vasiylik Kengashi, texnik jihatdan hali ham mavjud, ammo 1994 yildan beri faol emas. Vasiylik kengashining roli suveren bo'lmagan "ishonchli" hududlarni nazorat qilish va ularga maslahat berish edi. Oxirgi ishonchli vakil (Palau) 1994 yilda o'z suverenitetini qo'lga kiritdi. Uning maqsadi amalga oshdi, kengash faoliyati to'xtatildi. Biroq, u hech qachon rasman tarqatilmagan.

XAVFSIZLIK KENGASHI

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomiga muvofiq xalqaro tinchlik va xavfsizlikni barqaror etish borasida Xavfsizlik Kengashi bosh javobgarlikni zimmasiga oladi va u tinchlik xavf ostida qolganda har qanaday vaziyatda chaqirilishi mumkin.

Kengash 15 a'zodan tashkil topgan. Ularning beshtasi — Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Birlashgan Qirollik, Amerika Qo'shma Shtatlari va Fransiya — doimiy a'zolar hisoblanadi. Kengashning qolgan o'n a'zosi Bosh Assambleya tomonidan ikki yil muddatga saylanadilar. Keyingi yillarda Birlashgan Millatlar Tashkilotida Kengashning a'zolar tarkibini o'zgartirish, bu tadbir zamonaviy va iqtisodiy voqelikni yanada yorqinroq aks ettirishi masalasi muhokama qilinayapti. Kengashning qarorlari, uning uchun to'qqiz a'zo ovoz bergan

taqdirdagina qabul qilingan hisoblanadi. Kun tartibidagi masalaga Kengashning doimiy a'zolaridan birortasi qarshi ovoz bersa, shuningdek, veto huquqidan foydalansa qaror qabul qilinmaydi. Xalqaro tinchlikka xavf solinganligi haqida kengashga xabar berilganda bu mojaro avvalo tinchlik yo'li bilan bartaraf etish nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Kengash, balki bartaraf etish tamoyillarini ishlab chiqadi yoki hakam vazifasini o'taydi. Harbiy harakatlar boshlanib ketgan taqdirda Kengash o't ochishni to'xtatish choralari ko'radi. Shuningdek, u tomonlarni yarashtirish yoki bir-birlari bilan janjallashayotganlarni ajratishga yordam beradigan, tinchlikni barqaror etuvchi missiya yuborishi mumkin. Kengash o'zi qabul etgan qarorlarning bajarilishini ta'minlash bo'yicha tadbirlar qabul qilishi mumkin. U iqtisodiy jazo choralari qo'llashi yoki qurollarni yetkazib berishga embargo qo'yishi mumkin. Juda kamdan-kam hollarda Kengash o'zi qabul qilgan qarorni bajarish uchun a'zo-mamlakatga birgalikdagi harbiy harakatlarga qadar bo'lgan „barcha zarur vositalarni“ qo'llashga vakolat beradi. Shuningdek, Kengash Bosh kotib lavozimiga muayyan nomzodni va Birlashgan Millatlar Tashkilotiga yangi a'zolarini tavsiya etadi.

XALQARO SUD

Xalqaro Sud — Butunjahon sudi sifatida hammaga ma'lum bo'lib, u Birlashgan Millatlar Tashkilotining bosh sud organidir. Bosh Assambleya va Xavfsizlik Kengashi tomonidan saylangan 15 sudyadan tashkil topgan Xalqaro Sud davlatlar o'rtasidagi mojarolarni bartaraf etish bilan shug'ullanadi. Davlatlarning — sud muhokamasida qatnashishlari ixtiyoriydir, biroq davlatlar shunga rozi bo'lsalar, ular Sud qaroriga bo'ysunishlari shart. Shuningdek, Bosh Assambleya va Xavfsizlik Kengashi iltimoslari bilan Sud konsultativ xulosalar chiqarish ishlari bilan ham shug'ullanadi.

HOZIRGI BMTNING ASOSIY MUAMMOSI

Hozirgi BMTning asosiy muammosi — Xavfsizlik kengashiga a'zo besh davlat: AQSh, Buyuk Britaniya, Xitoy, Fransiya va sovet ittifoqining huquqiy vorisi Rossiya ega bo'lib turgan veto huquqi. BMT Nizomida ta'sischi davlatlarda bunday huquq belgilanmagan, biroq Nizomining 27-moddasi 3-bo'limida protsedurali masalalardan tashqari barcha masalalar bo'yicha qarorlar «kengash barcha doimiy a'zolarining ovozlari berilganidan so'ng» qabul qilingan deb hisoblanishi belgilab qo'yilgan. Boshqacha qilib aytganda, bu bir to'xtam prinsipi besh davlatdan birining qarshi ovoz berishi yoki ovoz berishga ikkilanishi ham defakto unga veto qo'yganidan darak beradi. Zamonga mos kelmay qolgan bu tizimni isloh qilish haqida anchadan buyon aytilib kelinayotgan edi. BMTning ayni damdagi Nizomi tuzilgan paytda hozirgi juda yirik va ta'sir doirasi keng hamda keyinchalik bu xalqaro tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlar yo'q edi. BMTning hozirgi bosh muammosi shundaki, u urushlar oldini oluvchi mexanizm sifatida yaratilgandi, biroq bugungi kunda bu mexanizm ish bermayapti. Chunki u boshqa davrda, boshqa maqsad va vazifalar uchun tuzilgan. BMT Xavfsizlik kengashi doimiy a'zolarining veto huquqini cheklashni turli davrlarda har xil davlatlar taklif qilgan. 2014-yilda bunday taklif bilan hattoki dunyo taqdirini hal qiluvchi besh davlat biri bo'lgan Fransiya ham o'rtaga tashlagan. O'shanda Fransiya tashqi ishlar vaziri BMTda chiqish qilgandi. Biroq o'shanda Fransiyaga AQSh, Buyuk Britaniya va Xitoy

qo'shilgan taqdirda ham (bunday bo'lmagan, albatta) hech narsa yuz bermasdi, chunki Rossiya bunga doimo tish-tirnog'i bilan qarshi. Bu haqida gap ochilishi hamono, Moskva o'z odatiga ko'ra, Ikkinchi jahon urushi xotirasini o'rtaga tiqishtiradi. Xavfsizlik kengashini anchadan beri pishib yetilgan isloh qilish mavzusini RF Ikkinchi jahon urushi yakunlarini qayta ko'rib chiqish bahonasi bilan yakson qiladi. Haqiqatdan ham, Ikkinchi jahon urushining barcha natijalari adolatli bo'lmagan. Aytaylik, sovet ittifoqi tomonidan Boltiqbo'yi davlatlari, Finlandiya hududi bir qismi, Sharqiy Prussiya, Janubiy Kuril orollari va bir qator davlatlar hududlarining annexia qilinish. Endi bu mavzuda Rossiyaning orqasiga zarba bergan navbatdagi davlat Turkiya bo'lmoqda. Erdo'g'an Xavfsizlik kengashi isloh qilinishi borasida qat'iy bayonot bilan chiqish qildi. Xarakterlisi shundaki, Moskva bu so'zlarga e'tibor qaratgani yo'q. Garchi bu Rossiya uchun og'riqli mavzu va ilgari bunday chiqishlarga qarshi Kreml va RF Tashqi ishlar vazirligi albatta jazavali javob qaytarar edi. Bu marta na rasmiy, na norasmiy javob bo'ldi, hattoki OAVda ham bu mavzu yoritilmadi. Turkiya ayni vaqtda RFning eng yirik savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biri bo'lib qolmoqda va Moskva munosabatlar buzilishini istamaydi.

Xulosa shuki, Boz ustiga, xoh Anqara, xoh boshqasi BMT Xavfsizlik kengashini isloh qilish bo'yicha istalgan yechimlarni taklif qilaverishi mumkin, lekin bu jarayonni demokratlashtirish mexanizmi mavjud emas. Buning uchun Xavfsizlik kengashiga a'zo beshta davlatning o'zi vetodan voz kechish yoki uni cheklash darajasiga pishib yetilishi kerak. Buning uchun ularning barchasi, birinchi navbatda tanlanganlar klubining avtoritar a'zolari — Rossiya va Xitoy keskin o'zgarishi kerak.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. The Obama Administration and International Law. Available at: <http://www.state.gov/s/l/releases/remarks/139119.htm> (accessed 22.01.2016).
2. UN Transparency and Accountability Initiative. Available at: <http://usun.state.gov/about/2196/6657> (accessed 22.01.2016).
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Birlashgan_Millatlar_Tashkiloti
4. <https://nsp.gov.uz/outinst?id=23>, <https://www.bukhari.uz/?p=20618&lang=oz>
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/birlashgan-millatlar-tashkiloti-va-zamonaviy-xalqaro-munosabatlar-tashkilot-islohatga-muhtojmi>
6. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. *Universum: технические науки*, (8-1 (77)), 27-29.
7. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). TA'LIM TIZIMIDA KO'ZI OJIZ O'QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALAR. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(5), 990-993.
8. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. *Scientific Impulse*, 1(2), 535-537.

9. Hamidullo o'g'li, Tursunov Hojiakbar, and Boymuratov Erkin Kamolovich. "IMKONIYATI SHEKLANGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASH TAJRIBASI." Scientific Impulse 1.7 (2023): 648-653.
10. Расулов, Х. (2021). Ҳуқуқий маданият: муаммонинг ижтимоий-сиёсий омиллари. Общество и инновации, 2(10/S), 335-342.
11. Ramazanovich, M. N., & Abdunazarovich, P. B. (2021). Protection of Family and Youth in the Constitution of the Republic of Uzbekistan. Middle European Scientific Bulletin, 18, 221-223.
12. Расулов, Х. М. (2021). ВЫБОРНЫЙ ЯВЛЕНИЕ И ПРОБЛЕМА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЭЛЕКТРОКУЛЬТУРЫ НАСЕЛЕНИЯ. Восточно-европейский научный журнал, (11-6 (75)), 28-32.
13. Rasulov, H. M. (2021). ELECTION PHENOMENON I THE PROBLEM OF IMPROVING THE ELECTRIC CULTURE OF THE POPULATION. ВОСТОЧНО ЕВРОПЕЙСКИЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ, 75(part 6), 28.
14. Расулов, Ҳ. М. (2022). СИЁСИЙ МУНОСАБАТЛАРДА СИЁСИЙ МАДАНИЯТ. Academic research in educational sciences, 3(NUU Conference 2), 863-867.
15. Rasulov, H. M. (2021). ELECTION PHENOMENON I THE PROBLEM OF IMPROVING THE ELECTRIC CULTURE OF THE POPULATION. ВОСТОЧНО ЕВРОПЕЙСКИЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ, 75(part 6), 28.
16. Расулов, Х. М. (2020). ТЕХНОЛОГИИ ОБЪЯСНИТЕЛЬНО-РЕПРОДУКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (3), 45-49.
17. Расулов, Х. М. (2020). JAMOATCHILIK NAZORATI VA RAHBAR KADRLAR FAOLIYATI SIYOSIY-HUQUQIY MADANIYAT IFODASI SIFATIDA. Журнал Социальных Исследований, 3(4).
18. Расулов, Ҳ. М. (2022). МАЪНАВИЙ ТАРҒИБОТДА ИЛҒОР ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАР. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 818-826.
18. Mamanovich, R. H. (2022). The mass media as a subject of political and legal propaganda. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(10), 122-19.
- Ramazanovich, N. M., & Mamanorov, K. (2022). CONSTITUTIONAL-LEGAL RELATIONS, THEIR SUBJECTS, OBJECTS AND TYPES. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(11), 747-756.
20. Normamat Mallaev Ramazanovich. (2022). CONSTITUTIONAL-LEGAL STATUS OF MASS MEDIA. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(11), 70–78.
21. Rasulov, H. M. (2021). ELECTION PHENOMENON I THE PROBLEM OF IMPROVING THE ELECTRIC CULTURE OF THE POPULATION. ВОСТОЧНО ЕВРОПЕЙСКИЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ, 75(part 6), 28.
22. Ramazanovich, M. N., & Kabilovich, B. O. (2021). Constitutional and Legal Framework for Providing International Peace. Middle European Scientific Bulletin, 18, 218-220.

23. Хакимова, М. (2021). Ўзбекистонда миллатлараро тотувликни таъминлаш соҳасидаги устувор йўналишлар. *Общество и инновации*, 2(10/S), 261-267.
24. Normamat Mallaev Ramazanovich, & Khaitmurod Mamanorov. (2022). PECULIARITIES OF CONSTITUTIONAL-LEGAL RELATIONS. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(11), 89–94.
25. Ramazanovich, Mallaev N. "Comparative Analysis of National and Foreign Experiences on the Example of the Constitutional and Legal Basis of Ecological." *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, no. 2, 2020, pp. 1-5.
26. Normamat Mallaev Ramazanovich, IMPORTANCE AND ANALYSIS OF THE CONCEPT OF CIVIL RIGHTS , *Web of Scientist: International Scientific Research Journal: Vol. 3 No. 10 (2022): wos*
27. Кушоков, С. (2021). Сополли ва Жарқўтон маданиятида дафн маросимлари. *Общество и инновации*, 2(11/S), 150-154.
28. Kushokov, S. Y. (2021). The Role of Zoroastrianism in the Ancient State of Bactria. *World Bulletin of Social Sciences*, 4(11), 69-72.
29. Yusupovich, K. S. (2020). The Emergence Of Religious Views Is Exemplified By The Southern Regions. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(10), 143-145.
30. Yusupovich, K. S. (2021). Қадимий Дафн Маросимларидаги Анъана Жараёнлари Ўзбекистон Жануби Мисолида. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(6), 72-77.
31. Сафарали, К. Ю. (2020). Чорвадор Қабилалар Дафн Маросимлари Ва Уларнинг Хусусиятлари. *Взгляд В Прошлом*, 3(4).
32. Сафарали, К. Ю., & Хуррамов, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНING МАЛАЙЗИЯ ҲАМДА ИНДОНЕЗИЯ ДАВЛАТЛАРИ БИЛАН ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА МАДАНИЙ СОҲАЛАРДАГИ ҲАМКОРЛИГИ. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 176-186.
33. Kushokov, S. Y., & Ahmedov, S. (2021). THE STRUCTURE OF TURKISH TRIBES IN CENTRAL ASIA AND ITS HISTORICAL IMPORTANCE. *European Scholar Journal*, 2 (10), 25-27. Of Two Languages, Settlement And Livestock Tribes. *The American Journal of Interdisciplinary*.
34. Kushokov, S. Y., & Ahmedov, S. (2021). THE STRUCTURE OF TURKISH TRIBES IN CENTRAL ASIA AND ITS HISTORICAL IMPORTANCE. *European Scholar Journal*, 2 (10), 25-27. Of Two Languages, Settlement And Livestock Tribes. *The American Journal of Interdisciplinary*
35. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. *Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers*, 15(3), 49-57.